



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

TILSHUNOSLIKDA INTENSIFIKASIYA SEMANTIKASI VA UNING METATILI XUSUSIDA

Azamjon Ixtiyorov Avazjon o'g'li
Qo'qon davlat universiteti, o'qituvchi, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada intensivlik hodisasi, avvalo, borliqdagi narsa, hodisalarning harakati, holati bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lishi, Intensifikatsiya sifatning miqdoriy o'zgarishi ekanligi, mazkur o'zgarish me'yordagi o'lchovdan chetga chiqish holatlari bilan bog'liq bo'lib, u so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham muhim ekanligi, intensifikatsiya semantikasiga ega bo'lgan birliklar uchun quyidagi terminlar tizimi xususan fonointensema, morfointensema, leksointensema, sintaksointensema, frazeintensema, sentensointensema, frazeointensema hamda tekstointensema kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: intensifikatsiya, intensifikator, fonointensema, morfointensema, leksointensema, sintaksointensema, frazeintensema, sentensointensema, frazeointensema, tekstointensema.

О СЕМАНТИКЕ ИНТЕНСИФИКАЦИИ И ЕЁ МЕТАЯЗЫКЕ В ЛИНГВИСТИКЕ

Азамжон Ихтиёров Авазжон угли
Кокандский государственный университет, преподаватель, PhD

Аннотация

В данной статье анализируются семантические особенности и место явления интенсификации в языковой системе. Интенсификация рассматривается как явление, непосредственно связанное с усилением или отклонением от нормативной степени проявления признаков, состояний и действий предметов и явлений объективной действительности. Обосновывается положение о том, что интенсификация представляет собой количественное изменение качества и обладает важным прагматическим и коммуникативным значением как для говорящего, так и для слушающего. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы формирования метаязыка интенсификации и классификации единиц, обладающих семантикой усиления. В частности, предлагается использование таких терминов, как фоноинтенсема, морфоинтенсема, лексоинтенсема, синтаксоинтенсема, фразеоинтенсема, сенсенсоинтенсема и текстоинтенсема. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию механизмов функционирования интенсификации на различных уровнях языка и совершенствованию её лингвистического описания.

Ключевые слова: интенсификация, интенсификатор, фоноинтенсема, морфоинтенсема, лексоинтенсема, синтаксоинтенсема, фразеоинтенсема, сенсенсоинтенсема, текстоинтенсема.

ON THE SEMANTICS OF INTENSIFICATION AND ITS METALANGUAGE IN LINGUISTICS

Azamjon Ixtiyorov Avazjon o'g'li
Kokand State University, Lecturer, PhD

Abstract

This article examines the semantic nature of intensification and its role within the linguistic system. Intensification is interpreted as a phenomenon directly related to the strengthening or deviation from the normative degree of actions, states, and qualities of objects and events in reality. The study argues that intensification represents a quantitative modification of quality and carries significant pragmatic and communicative value for both speakers and listeners. Furthermore, the article addresses the issue of developing a metalanguage for the description of intensification and the classification of linguistic units expressing intensification semantics. In particular, the use of such terms as *phonointenseme*, *morphointenseme*, *lexointenseme*, *syntactointenseme*, *phraseointenseme*, *sentenceintenseme*, and *textointenseme* is proposed and theoretically justified. The findings contribute to a deeper understanding of the mechanisms of intensification across different levels of language and provide a framework for improving its linguistic description.

Keywords: intensification, intensifier, phonointenseme, morphointenseme, lexointenseme, syntactointenseme, phraseointenseme, sentenceintenseme, textointenseme.

Ma'lumki, intensivlik kategoriyasi masalalari qadimdan tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan bo'lsa-da, bu muammoga qiziqish tom ma'noda XIX asrning 60–70-yillarida yanada jonlandi. Buning natijasi o'laroq, tilshunoslikda bir qancha ishlar yuzaga keldi. G. Kirxner, B. Charlston, S. Grinbaum, D. Bolindjer, Sh. Balli, A.V. Kunin, V.I. Shaxovskiy, L.Ya. Gerasimova, E.N. Sergeeva, O.F. Shevchenko, I.G. Beruchashvili, V.A. Malsev, K.M. Suvorina, E.I. Sheygal, I.I. Turanskiy, L.V. Vorobeva, Z.M. Zubko, T.V. Shtatskaya, M.B. Mesler, K.T. Rsaltdinov, I.K. Kalinina, A.N. Polyanskiy, V.V. Akulenko, V.P. Musienko, T.A. Soy, A. Abdullaev, M. Sodiqova, O. Bozorov, T.N. Grigorenko, I.I. Ubin, N.P. Troshkina, G. Gafforova, I.Ya. Svinskiy kabi olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Ammo ular mazkur masala tadqiqiga turli nuqtai nazardan yondashganlar.

An'anaviy tilshunoslikda so'z ma'nosining kuchayishi yoki intensifikatsiya hodisasi til va nutq vositalari yoki ularga bevosita yondosh omillar bilan izohlanadi. Bugungi tilshunoslikda esa mazkur muammoni yanada chuqurroq, ya'ni kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya aspektlarida ham tadqiq etish imkoniyatlari vujudga kelmoqda. Shu bois so'z ma'nolarini kuchaytirish yoki intensivlikni har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, ruhiyati, urf-odati, madaniyati kabi omillar bilan bog'liq holda o'rganish hozirgi dolzarb masalalardan biridir.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davrigacha, afsuski, hatto "intensivlik" tushunchasining o'zi ham tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlangan. Mazkur tushuncha A.V. Kunin [3; 12–19], A. Abdullaev [1; 36–39] kabi tilshunoslar ishlarida "kuchaytirish" ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, D. Bolindjer [2; 76–80] singari tilshunoslar esa "ekspressivlik", "emotsionallik", "affektivlik"ni aynan bir xil ma'no ifodalovchi terminlar sifatida tushunib, "intensivlik" va "intensifikatsiya" atamalaridan foydalanmaydi. Ko'rinish turibdiki, "intensivlik" tushunchasi hozirgi davrda ham munozarali masalalardan hisoblanadi.

Inson obyektiv borliqda yuz beradigan harakat va hodisalarning qay darajada sodir bo'lishini ham chuqurroq o'rganishga harakat qiladi. Obyektiv olamdagi ana shunday nisbiy holatlar inson ongida qiyos orqali aks ettiriladi. Qiyoslash borliqdagi narsa va hodisalarni bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan usuldir. Undan obyektiv holatda mavjud bo'lgan kuchaytirishni anglash va bilishda ham foydalaniladi.

Intensivlik hodisasi, avvalo, borliqdagi narsa va hodisalarning harakati, holati bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, shamolning esishi hamda uning bo'ron va to'fonga aylanishi; yomg'irning sevalab, kuchli, ya'ni sel yoki do'l tarzida yog'ishi; haroratning sovishi, ilishi, isishi; transport vositalarining sekin, maromida yoki tez harakatlanishi kabilar. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, biror fanni o'qitishning intensiv kursi kabi hollarda ham buni kuzatish mumkin [7; 12].

Yuqorida zikr qilingan barcha holatlarda intensivlik zaminida miqdorning me'yoriy holatidan ortishi, o'sib borishi yotadi. Bizni qurshab turgan moddiy borliqdagi narsa va hodisalarga sifat, miqdor va me'yorlar xos bo'lib, ularning tilda o'z aksini topishi tabiiydir.

Tilshunoslikda "intensivlik" tushunchasi haqida juda xilma-xil fikrlar mavjud. Aksariyat olimlar [4; 12–20] mazkur tushunchani miqdor kategoriyasining bir ko'rinishi sifatida qaraydilar. Ular intensivlikni semantik kategoriya deb hisoblab, uning asosida "miqdor" tushunchasining ma'nodagi gradasiyasi yotishini e'tirof etadilar. Kuzatishimizcha, intensivlik kategoriyasining bunday keng talqini Sh. Ballidan boshlangan. U intensivlik deganda miqdor, kattalik, qiymat, kuch kabi kategoriyalar bilan aloqador bo'lgan barcha farqlarni tushungan [2; 24–46].

Intensifikatsiya sifatning miqdoriy o'zgarishidir. Mazkur o'zgarish me'yoriy o'lchovdan chetga chiqish holatlari bilan bog'liq bo'lib, u so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham muhimdir.

Intensifikator – intensivlikning me'yoriy bo'lmagan darajasini hosil qiluvchi vosita; intensiv natijaning nomi, til hodisalari voqelanishida me'yordan yuqori daraja ko'rsatkichidir. Masalan: *l-a-a-a-rge* so'zi tarkibidagi cho'zilgan *a-a-a* – intensifikator, *l-a-a-a-rge room* esa intensiv birlikdir. Ingliz tilidagi *super-*, *hyper-*, *over-*, *out-* kabi prefikslar (old qo'shimchalar) intensifikatorlar hisoblanadi. Intensifikatorlar intensivlikni eksplitsit tarzda ifodalovchi vositalardir. Ammo ko'pchilik so'zlarning semantik strukturasi intensivlik semasi implitsit tarzda namoyon bo'ladi. Bunday so'zlar **intensifikatlar** deb nomlanadi. Ularning markerlari so'zning semantik definitsiyasida uchraydi.

Masalan:

Gorgeous – very beautiful: Mandy was there, looking gorgeous as usual;

Rejoice – to feel very happy about something;

Triumph – a great victory or success: This track has been the setting for some of her greatest triumphs;

Terribly – very or extremely: Something is terribly wrong [8; 14].

Intensifikatorlar va intensifikatlar orasiga aniq chegara qo'yish qiyin, chunki semantik strukturasi intensivlik semasiga implitsit tarzda ega bo'lgan so'zlar, ya'ni intensifikatlar, eksplitsit tarzda boshqa so'zlar ma'nosini kuchaytirishi mumkin. Masalan, *terrible* intensifikati *pain* so'zi bilan birikib, mazkur so'zning intensifikatoriga aylanadi: *terrible pain – very strong pain*.

Shunday qilib, bizningcha, intensifikator maqomida ifodaning ekspressivlik darajasini kuchaytiruvchi har qanday vosita kelishi mumkin. Bunday vaziyatda uning qurshovida kuchaytiruv ravishlari, kuchaytiruv sifatleri va fe'llar bo'ladi.

Hozirgi davr tilshunosligida **“intensifikatsiya”** va **“gradasiya”** terminlari muqobil (ekvivalent) atamalar sifatida qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, intensifikatsiya yunoncha so'z bo'lib, “zo'riqish”, “keskinlashish”, “bosimning oshishi” kabi sinonimik tushunchalarni ifodalaydi. Xususan, keskinlashish muayyan belgining o'zgarishi, kuchayishi bilan bog'liq. Keskinlashish o'z dinamik yo'nalishiga ega. Ana shu yo'nalishning bosqichlanishi esa o'lchash imkoniyatiga ega. Gradasiya ana shu bosqichlarning o'lchanishi bilan bog'liq tushunchadir. O'lchash orqali esa bosqichlanish, darajalanish miqdorlari (gradasiyalari) aniqlanadi.

Xususan, tabiiy (fizik) hodisa va jarayonlar bosqichlari yoki darajalanishlarini o'lchash uchun gradual asboblardan (masalan, tana haroratini o'lchash uchun gradusniklardan) foydalaniladi. Shunday qilib, **intensifikatsiya/deintensifikatsiya** atamasi bevosita belgi yoki jarayonning fizik holatiga (kuchayishiga) ishora qilsa, **gradasiya** atamasi shu kuchayib boruvchi holatning o'lchovini anglatadi.

Demak, gradasiya va intensifikatsiya terminlari bir hodisaning turli jihatlari bilan bog'liq bo'lgan atamalar bo'lib, har ikkisi ham kuchayib borish, kuchayish jarayonini ifodalash uchun xizmat qiluvchi sinonim atamalaridir [5; 69–82].

Hozirgi davr tilshunosligida belgi miqdorining oshishi yoki kamayishi bilan bog'liq bo'lgan atamalardan foydalanilmoqda: gradasiya (darajalanish), klimaks (belgining kuchayib, oshib borishi), antiklimaks (belgining kuchsizlashib, kamayib borishi), intensifikatsiya (belgining kuchaytirilishi, oshirilishi), giperbola (belgining haddan ziyod oshirilishi), antigiperbola (belgining haddan ziyod kuchsizlantirilishi, kamaytirilishi), mubolag'a (belgining haddan ziyod, ishonib bo'lmaydigan darajada oshirilishi), litota (belgining kamaytirilishi), meyozi (belgining kuchsizlantirilishi), tafrit (belgining kuchsizlantirilishi, tasvir obyektining o'ta kichraytirilishi), ifrot (belgining, tasvir obyektining o'ta kattalashtirilishi), ig'roq (belgining kuchaytirilishi), tablig' (belgining kuchaytirilishi), g'uluv (belgining kuchsizlantirilishi) kabi. Bular intensifikatsiya/deintensifikatsiya kategoriyasining eng umumiy (kategorial) atamalaridir. Lingvistik adabiyotlarda intensifikatsiya kategoriyasining xususiy, darajalanish tushunchalariga oid atamalarda har xillik uchraydi: ordinar (belgining me'yoriy holati), subordinar (belgining me'yordan kuchsiz holati), superordinar (belgining me'yordan ortiq, kuchli holati), elativ (me'yordan yuqori daraja), superlativ (eng yuqori daraja), emfasayzer/emplifayer (belgining kuchli darajasini ifodalovchi birliklar), dauntauner (kuchsiz daraja), maksimayzer (eng kuchli daraja), buster (kuchli daraja), kompromayzer (bir oz kuchsiz daraja), diminisher (kuchsiz daraja), minimayzer (eng kuchsiz daraja) kabi. Ko'rinib turibdiki, intensifikatsiya kategoriyasiga aloqador terminlar asosan badiiy, so'zlashuv va publitsistik uslublarga xos [6; 17–19].

Albatta, har bir milliy (xususiy) tilshunoslik boshqa tillar tadqiqotchilari qo'llagan atamalardan ibrat olishi, o'z yoki baynalmilal terminlardan foydalanishi mumkin. Har bir tilshunoslik intensifikatsiya kategoriyasi bo'yicha o'z metatili yoki terminlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Bunda, albatta, terminlardagi dubletlik bartaraf etilishi lozim.

Biz ushbu ishimizda intensifikatsiya semantikasiga ega bo'lgan birliklar uchun quyidagi terminlar tizimini tavsiya etamiz:

1. fonema (fonomorfema), urg'u va intonatsiyalar orqali voqelantiriladigan intensemalar uchun **fonointensema**;
2. morfemalar orqali voqelantirilgan intensemalar uchun **morfointensema**;
3. leksemalar orqali voqelantirilgan intensema/deintensemalar uchun **leksointensema**;
4. sintaksemalar orqali voqelantirilgan intensemalar uchun **sintaksointensema**;
5. frazemalar orqali voqelantirilgan intensemalar uchun **frazeintensema**;
6. sentencema (sintaktik birlik) orqali voqelantirilgan intensemalar uchun **sentensointensema**;
7. frazeologik birliklar orqali voqelantirilgan intensemalar uchun **frazeointensema**;
8. matn orqali voqelantirilgan intensema/deintensemalar uchun esa **tekstointensema** deb atash maqsadga muvofiqdir.

Nihoyat, ushbu tadqiqot uchun bosh, yetakchi atama bo'lgan **intensifikatsiya** atamasining biz tomonimizdan o'ziga xos mazmun-mundarijada qo'llanilayotganligini aytib o'tamiz. Yuqorida

eslatilganidek, intensifikatsiya atamasi ko'p adabiyotlarda belgining kuchayishi ma'nolarida qo'llanadi. Biz ushbu terminni keng ma'noda yoki keng qamrovga ega bo'lgan semantik atama sifatida qo'llaymiz. E'tibor berilsa, belgi miqdorining o'zgarishi, aslida, undagi sifat xususiyatining ko'payishi yoki ozayishi bilan bog'liq. Ana shu ko'payish yoki ozayish bir sifat yo'nalishi sifatida ikkinchi sifatning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun, bizningcha, ozayish va ko'payish invariant hodisa bo'lib, u boshqa, ya'ni qisqalik–cho'ziqlik, qattqlik–yumshoqlik, tezlik–sekinlik, kuchlilik–kuchsizlik, balandlik–pastlik kabi o'z sifatlariga ham ega bo'lgan variant hodisalar uchun asos vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, kuchayish–susayish, kenglik–torlik, sekinlik–tezlik kabi juftliklar tarkibida muayyan belgining ozligi yoki ko'pligi semasi mavjud: ular “ozayish” va “ko'payish” semalari asosida shakllangan. Biz ushbu semik holatni nazarda tutib, **intensifikatsiya** atamasini yuqorida keltirilgan tur va variantlarini o'ziga qamrab oluvchi jins (родовое понятие) maqomidagi atama sifatida qo'llaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. Intensivlikni ifodalovchi analitik formalar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. – № 1. – B. 36–39.
2. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Иностранная литература, 1961. – 394 с.
3. Кунин А. В. Фразеологические интенсификаторы в современном английском языке // Иностранные языки в школе. – М., 1966. – № 1. – С. 12–19.
4. Мальцева Л. В. Эмотивно-событийный концепт «горе», «беда», «несчастье» в русской языковой картине мира: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2009. – 24 с.
5. Сергеева Е. Н. Абсолютная степень интенсивности качества и её выражение в английском языке // Проблемы лингвистического анализа. – М., 1966. – С. 69–83.
6. Сергеева Е. Н. Степени интенсивности качества и их выражение в английском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 22 с.
7. Трошкина А. Н. Номинативный аспект категории интенсивности действия в разноструктурных языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2001. – 21 с.
8. Туранский И. И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – М.: Высшая школа, 1990. – 173 с.